

SHAHRIXONSOY KANALINING ANDIJON VILOYATIDA TUTGAN O'RNI, UNDA YASHOVCHI ORGANIZMLAR VA MAKROZOOBENTOSLARNING BIOXILMA-XILLIGI

Andijon davlat universiteti b.f.f.d,dotsent - F.Umarov

Andijon davlat universiteti magistranti - N.Umarova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrixonsoy kanalining yaratilish tarixi,uning qishloq xo'jaligida tutgan o'rne,Shahrixonsoydagi o'simlik va hayvonot dunyosi,shuningdek unda yashovchi makrozoobentoslar haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Shahrixonsoy kanali, suv oqimi, biologik ko'rsatkichi, makrozoobentosar, xilma-xillik, suvning ifloslanish darajasi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Аннотация: В этой статье представлена научная информация об истории создания канала Шахрихансай,его роли в сельском хозяйстве,флоре и фауне шахрихансая,а также о макрозообентосе, населяющем его.

Ключевые слова: Канал Шахрихансай, водоток, биологический индикатор, макрозообентосар, разнообразие, уровень загрязнения воды, физико-химические показатели

Annotation: This article provides scientific information about the history of the creation of the Shahrikhonsoy Canal,its role in agriculture,the flora and fauna of Shahrikhonsoy,as well as the macrozoobentos living in it.

Keywords: Shahrikhonsoy canal, water flow, biological indicator, macrozoobentosar, diversity, water pollution level, physico-chemical indicators

KIRISH

Shahrixonsoy - Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi magistral kanal. Kanalning boshlanish joyi Kampirravot gidrouzelidir. U 1887-yilda insonlar qo'li tomonidan qurilgan. Uning umumiy uzunligi 120 kilometrni tashkil etadi. Shahrixonsoy kanali boshlanish qismida suv o'tkazish imkoniyati $110 \text{ m}^3/\text{s}$; Katta Farg'ona kanali bilan kesishgan joyida esa $30 \text{ m}^3/\text{s}$. Asaka shahri yonida 2 elektr stansiya kanal suvi ($40 \text{ m}^3/\text{s}$) bilan ishlaydi. Kanaldagi suv 8 yirik gidrouzellar orqali taqsimlanadi. 1976-yildan kanalda rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Kanal sel, Oqbura va Aravon daryolaridagi toshqin hamda qishki tashlama suvlarni qabul qilishga xizmat qiladi, bu suvlar kanal orqali Asaka gidro uzeligacha keladi. Trassaning 62 km da Shahrixonsoy Aravonsoy daryosi bilan qo'shilib ketadi va shu yerdan (Nayman rostlagichigacha) daryoning qadimiy o'zanida oqadi. Janubiy Farg'ona kanali bilan birgalikda Andijon, Farg'ona viloyatlari va Qirg'izistonning O'sh viloyati (127,5 ming

ga) yerlarini sug'oradi. Andijon viloyatida Katta Farg'ona kanali bilan kesishgan joyigacha faqat Sharixon shahrining o'zidan 68 ming ga yer sugoriladi. Kanalning vodiya qishloq xo'jaligi, chorvachilik va sanoatda tutgan o'rni beqiyosdir.



Shahrixonsoy kanalining kengligi turli hududlarda turlicha kenglikka ega. Kampirravotda uning kengligi 150 metrdan oshmaydi. Ba'zi hududlarda ayniqsa, kanal tarmoqlangan joylarda kengligi 500 metrga yetadi. Eng katta chuqurlik bosh strukturasi 1,5 metrga yetadi. Odatda butun uzunlik bo'ylab daryo chuqurligi turli joylarda 20 dan 100 sm gacha o'zgarib turadi. Suv sathi va chuqurligi yil davomida o'zgarishlarni hisobga olmaganda ham, kun davomida tebranishlar katta bo'ladi.

Shahrixonsoy tuproqlari shubhasiz, allyuvial xususiyatga ega. Butun uzunligi bo'ylab har xil kattalikdagi toshlar va shag'allardan iborat. Shahrixonsoy suvi yuqori oqimida chuchuk, quyi oqimida esa sho'rli biron ortadi. Suvda katta miqdordagi organik moddalar mavjud. Shahrixonsoy kanal maqomida bo'lsada, uning dastlabki qismidan tashqari, o'rta va quyi qismlari tabiiy suv ekosistemaning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Boshqacha qilib aytganda, uzoq yillardan buyon doimiy ravishda suv irmoqlaridan to'yinishligi natijasida gidrobiontlarning turlar xilma-xilligi ortib keng tarqalish imkonini bergan. Xususan gerudafaunaga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Gerudafauna bioindikatorlik xususiyatga ega bo'lgan biotik munosabatlarda "parazit-ho'jayin" va "yirtqich-o'lja" ko'rinishida ishtirok etuvchi zuluk turlari dunyosidir. Biz tomonidan aniqlanganda, Shahrixonsoy gerudafaunasi o'rganilganda, ushbu kanal va uning irmoqlarida 2 turkum 3 oila 4 ta urug'ga mansub 7 tur zuluk tarqalganligi aniqlandi va ularning yashash biotoplari asosida ekologik guruhlarini shakllantirildi.

Shahrixonsoy suvining yuqori loyqaligi kanalning butun uzunligi bo'ylab umuman bentoslarning yaxshi rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qirg'oqqa yaqin bo'lgan hududlarda fauna ortib boradi. Kanalning o'rta qismida esa fauna deyarli uchramaydi. Suvda qum va loy miqdori ko'p bo'lganligidan kanal suvi o'simlikka ancha kambag'al. Kuz fasliga yaqin paytda suv ancha tiniqlashgan vaqtda o'simlik va hayvonot dunyosida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Shahrixonsoy kanalining suv rejimi va tiniqligiga bog'liq holda unda bioxilma-xillik yuqori bo'ladi. Aksincha suv miqdorining uzviy pastlab borishi, shuningdek suvning ekologik holati yomonlashib borgani sari suv o'tlari va unda yashovchi makrozoobentoslar turi kamayib qisqarib borishi kuzatiladi. Suv sathining bir me'yorda ushlab turish, suvga tashlanadigan chiqindilar miqdorini kamaytirish, kanal suvidan kompleks to'g'ri foydalanish dolzarb muammo bo'lib turganligidan, bularni yechimi topish va uni hayotga tadbiiq qilib bu usullardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Toshkent "O'z ME" 2004-yil 87-bet
- 2.Solijonov X, Izzatilloev Z Shahrixonsoy girudafaunasining bioxilma-xilligi va ekologik guruhleri. NamDU Ilmiy axborotnomasi 2021-yil 12-son.
- 3.N.A.Stepanova, A.I.Ledyaeva Gidrobiologiya irrigatsionnoy system Ferganskiy dolina. Toshkent 1987.
- 4.Bekzod Umarov Bakhtiyorjon son, Shamshidinova Mushtariy Pattojon daughter Grunt water formation and hydrogeological aspects
- 5.B.Umarov, Q.Ahmedov, M.Akilova – Fan va innovatsiyalar, 2022 y.
- 6.B. Umarov - Eurasian Journal of Research, Development and..., 2022
- 7.Bekzod Umarov Bakhtiyorjon son, Shamsiddinova Mushtariy Pattojon daughter Adverse effects of Grunt water on ecology